

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATI

Durdona Tursunaliyeva

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o’zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’riyatidagi o’ziga xos jihatlar o’rganib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Muhammad Yusuf, asar, Vatan, ijod, mahorat, oksyumoron.

O’zbek xalqi azaldan asarlar yozadi. Uning tuprog’idan tortib yaprog’igacha shoir, yozuvchilardir. Shunday shoirlardan biri- Muhammad Yusuf. Muhammad Yusuf haqida O’zbekiston qahramoni - Abdulla Oripov shunday degan edi: ”Chinakam shoirning qalbida allaqanday sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko’p bora eshitgandik. O’sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurbaniga men astoydil ishonganman. Uning ko’zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyni xonish qilganday edi. Vatan haqida juda ko’p yozilgan, yozilgani yaxshi, albatta. Biroq yozmoq bilan yozmoqning farqi bor. Muhammadjon ukamiz bir she’rida “Yurtim, seni iddaolar qilmay sevaman” deb aytganda qanchalar haq edi. Darhaqiqat, u o’z elini, xalqi, Vatanini chin farzandday, beg’araz, sidqidildan yaxshi ko’rar edi. Shu mehrning natijasi o’laroq, uning she’riyati ham xuddi shundoq beminnat va beg’araz she’riyat sifatida maydonga keldi. Va bu oqqo’ngil, osmonqalb ukamizdan xuddi shunday she’riyat yodgor qoldi”⁸⁰. Shu fikrlardan ham ko’rishimiz mumkinki, Muhammad Yusuf haqida qancha gapirsak shuncha oz. U o’z ijodi orqali chinakam xalqona o’zbek she’riyatining tamal toshini qo’yib ketdi desak, sira mubolag’a bo’lmaydi. Muhammad Yusuf milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma’naviyati va ong-u tafakkurini yuksalitirish, yosh avlod qalbida o’zlikni anglash, milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirishga yorqin iste’dodi, betakror badiiy asarlari, ijtimoiy faoliyati bilan katta hissa qo’shgan, asarlari orqali o’quvchilar qalbida hayrat va hayajon uyg’otib kelayotgan betakror ijodkordir. Manzili va maqsadi aniq karvonda yuksiz ulovning o’zi bo’limganidek, Muhammad Yusuf ko’nglidan el qalbiga yo’l olgan so’z karvonining har bir satrida Ona Vatan – O’zbekistonga beqiyos mehr-muhabbat, el xizmatiga kamarbastalik, zahmatkash va ulug’ o’zbek xalqiga chin farzandlik ehtiromi, samimiyat va jo’shqin ehtiros bilan yo’g’rilgan chuqur ma’no, ohang, rang va joziba mujassamdir. Muhammad Yusuf she’riyati haqiqiy o’zbekona she’riyat sanaladi. Muhammad Yusuf hayotni butun murakkabiklari bilan idrok etadi, jamiyatdagi va odamlardagi illatlar, noqisliklarga ko’z yummaydi. Ma’lumki she’r- shoir olamining mohiyati. U ijodkorning muayyan kayfiyati

⁸⁰ Muhammad Yusuf. Xalq bo’l, elim. Toshkent “O’zbekiston”, 2001, B.3.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

kechinmasidan dunyoga keladi. Shoir kechinmalarining qog’ozga qay shaklda ko’chishi esa, uning tafakkuri yo’sinidan darak beradi, she’rlarida o’zini namoyon qiladi⁸¹.

Muhammad Yusuf ijodida oksyumoron va uning ifodalanishi

Muhammad Yusufning ijodiga nazar tashlaydigan bo’lsak, u o’z asarlarida badiiylikdan, so’z mahoratidan juda mohirlik bilan foydalanganini ko’rishimiz mumkin. Misol uchun “Qora quyosh” nomli asarida oksyumoron⁸² dan mahorat bilan foydalangan.

U shunday buyukki,
Yo’qdir qiyosi,
Qancha buyuk bo’lsa,
Tubandir shuncha...
yoki
U yorug’ dunyoda
Tengi yo’q inson
Qadrdon begona
Yovuz mehribon

Matndagi buyuk, tuban so’zları bir-biriga zid ma’noda ishlataliyapti. Aslida ham oksyumoron stilistik effekt yaratish uchun qarama-qarshilikdan qasddan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Lirika shoir poetik taffakkurinig turli qirralarini ko’rsatib beradi. Muhammad Yusufning yuqorida qo’llagan buyuk⁸³ so’zi salbiy ma’noda qo’llanilyapti. Kontekstda anglashilayotgan uzviylik butun asar davomida sezilib turadi. Oksyumoron g’ayriodatiy antitezani yuzaga chiqarganligini keyingi matnda ham guvohi bo’lamiz.

Qadrdon begona
Yovuz mehribon

Oksyumoron ko’pincha sifat so’z turkumi doirasida uchraydi. Gap bo’laklaridan aniqlovchi va aniqlanmish o’tasida yuzaga kelgan yangicha badiiy san’at, badiiy ko’chim hisoblanadi. Yovuz mehribon- birikmasida shoirning poetik tafakkuri mahsuli sifatida yangicha ma’no qirralarini ko’rsatib bergen.

Mehribon so’zi uslubiy jihatdan oddiy betaraf leksema bo’lsada, ijobiy semalarda namoyon bo’ladi.

⁸¹ Веб-сайт- www.davron.uz (Murojaat sanasi 28.05.2024)

⁸² grekcha so’z bolib “o’tkir”, lekin be’mani degan ma’noni anglatadi.

⁸³ ‘ulug’vor, yuksak, tengsiz, mislsiz, aziz, mo’tabar, muqaddas (O’zbek tilining izohli lug’ati 1-qism 390-bet)